

“TARJUMON TURKIY” QO‘LYOZMASI – TURKIY XALQLAR YOZMA OBIDASI

Professor Jafarov Botir Sattarovich, Namangan davlat universiteti. f.f.d. (DSc)

Annotatsiya. *Turkiy qo‘lyozmalar ichida XIV asrda kitobat qilingan turkiy lug‘atchilik an‘anasini o‘zida mujassam etgan, turkiy xalqlarning arab alifbosida yaratilgan va bugungi kunda Gollandiyaning Leyden kutubxonasida saqlanayotgan “Tarjumon turkiy” qo‘lyozmasining tili va yozuvining o‘ziga xos xususiyatlari ushbu maqolada bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar. *Mamluklar davlati, turkiy til, qo‘lyozmasi, yozuv, arabcha, turkmancha, muallif, lug‘at, belgi.*

РУКОПИСЬ «ТУРЕЦКИЙ ПЕРЕВОДЧИК» – ПАМЯТНИК ПИСЬМЕННОСТИ ТУРЕЦКОГО НАРОДА

Professor Jafarov Botir Sattarovich, Namangan State University. f.f.d. (DSc)

Аннотация. *Среди турецких рукописей уникальными особенностями языка и письма является рукопись «Тарджумон туркий», воплощающая традицию турецкой лексикографии, изданная в XIV веке, созданная на арабском алфавите тюркских народов и сохранившаяся сегодня в Лейденская библиотека Нидерландов описана в этой статье.*

Ключевые слова. *Мамлюки, тюркский язык, рукопись, письменность, арабский язык, туркманский язык, автор, словарь, знак.*

MANUSCRIPT “TARJUMON TURKIY” – WRITTEN MONUMENT OF TURKIC PEOPLE

Профессор Жафаров Ботир Саттарович, Наманганский государственный университет. ф.ф.д. (DSc)

Abstract. *Among the Turkish manuscripts, the Tarjumon Turkish manuscript, which embodies the tradition of Turkish lexicography, published in the 14th century, created in the Arabic alphabet of the Turkic peoples and preserved today in the Leiden Library of the Netherlands, is described in this article.*

Keywords. *Mamluks, Turkic language, manuscript, writing, Arabic, Turkman language, author, dictionary, sign.*

KIRISH

Qadimgi turk yodnomalarining yirik namunalari adabiy til nuqtayi nazaridan qaralsa, ularning bir nechta turkiy lahjalarni o‘z ichiga olgan adabiy tilda yozilgani

ma'lum bo'ladi. Bu yozma adabiy til ko'pgina turkiy qabilalar uchun umumiy bo'lgan og'zaki adabiy til asosida vujudga kelgan¹.

Turkiy tillarning taraqqiy etish jarayoni ba'zi davrlarda anchayin tezlashgan bo'lsa, ba'zi davrlarga kelib bu jarayon bir oz sekinlashgani tarixiy manbalardan barchamizga ma'lum.

Turkiy xalqlar yashaydigan hududlarning tashkil topishi va barqarorlashuvi meloddan avvalgi birinchi minglillikdan boshlab turli tarixiy davrlarga tegishli. Bunday uzoq davr mobaynida turkiy tillarni hududiy til birligidagi qo'shni turkiy tillar bilan ham, boshqa qardosh bo'lmagan tillar bilan ham yaqin aloqada bo'lishi natijasida bir qancha umumiy fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlarga ega bo'lganini ko'rsatadi².

“Tarjumon turkiy” qo'lyozmasi tili va yozuvi haqida gap ketganda avvalambor lug'atning tuzilishiga oid tarixiy materiallarga murojat qilish eng to'g'ri va oqilona yechim ekanligidan dalolat beradi

Mamluklar davlatida, ya'ni 1250-yildan 1517-yillargacha bo'lgan davrda turk sultonlarini taxt egasi sifatida yurtga egalik qilganliklari o'z-o'zidan turkiy tilga bo'lgan e'tiborni yuksak darajaga olib chiqdi. Bu davrga kelib arab, fors va ajam deb ataluvchi xalqlarning turkiy tilni o'rganishi uchun bir qancha grammatik asarlar va lug'atlar va ularning tarkibida turli qo'llanmalarni yaratish katta ehtimol bilan zamon talabiga aylanib ulgurdi. O'sha davrdagi ajamliklarga turkiy, ya'ni qipchoq tilini o'rgatish uchun yozilgan asarlardan biri “Kitob-i majmu-i tarjumon-i turkiy va ajamiy va mug'aliy va farsiy”dir.

Kitob turkiy va mo'g'ul tillariga bag'ishlangan bo'limlardan tuzilgan. Uning ikkinchi bo'limi mo'g'ulcha-forscha va arabcha-mo'g'ulcha so'zlikdir. Kitobga mo'g'ulcha-forscha so'zlikning kiritilganligi bejiz emas. Xulagular davrida Eronda mo'g'ul tilini o'rganishga zarurat tug'ilgan ko'rinadi, shundan kelib chiqib lug'atga mo'g'ulcha so'zlik ham kiritilgan³.

¹ Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 4 с.

² Баскаков Н.А Введение в изучение тюркских языков,. Москва, Высшая школа 1969. – 17 с.

³ Содиқов Қ. Тарихий лексикография / - Тошкент. 2011. Б.-26.

Tahlil va natijalar

Qo'lyozma muallifi obidaning kirish qismida turkiy tilning tovush o'zgarishlari to'g'risida fikr yuritib: "Bilgilki, asl turkiy-qipchoq tili sakkizta harfdan xolidir. Ular: ث, ح, خ, ض, ظ, ع, ف, ه. Agar biror so'z shu harflardan qay birini o'z ichiga olganini payqasang, bilginki, u asl turkiy bo'lmay, boshqa tildan olingan so'z bo'ladi. Men asl turkiy til bilan turkman tili orasidagi farqni va hozir xalq orasida fors va boshqa tillardan olingan so'zlarni belgiladim"⁴ – deb yozadi.

Asar arab grammatik an'anasi bo'yicha tuzilgan: fasllarda arabcha so'z va unga turkiy ekvivalent beriladi. Faqat yigirma ikkinchi faslda oldin turkiy so'z, undan keyin uning arabcha izohi keltirilgan. Turkiy so'zlarni to'g'ri o'qish uchun diakritik belgilar keng ishlatilgan.

Lug'atda, asosan, turkiy so'zlar berilgan bo'lib orada o'zlashgan so'zlar ham berilganligini kuzatishimiz mumkin ammo, uning qaysi tildan o'zlashganiga ishora etiladi. Masalan:

“kemi – kema, buni kārāp deb ham yuritiladi, bunisi rumchadir”.

“açquç – kalit, kälit ham deyiladi, asli forscha kalid so'zidan olingan”.

“devār – devor. Bu so'z forschadir”.

“dānişmand – donishmand bu so'z turkmancha bo'lib, forschadan olingan”.

So'zlar izohlanganda, o'rni bilan, ularning sinonimlari, fonetik variantlari hamda dialektlarda qanday atalishi ham keltiriladi.

Masalan:

“qapu” – eshik; buni eşik ham deyiladi; to'sin”.

“yava” – piyoz, buni soğan ham deyiladi, keyingisi mashhurroq.”.

“buday” – bug'doy, buni buğday ham deyiladi”.

“börü” – bo'ri, buni qurt ham deyiladi, turkmancha; (buning ikkinchi ma'nosi) qurt [ya'ni hashorat]”.

Yoki qoraqush so'ziga shunday izoh berilgan:

“qaraquş” – burgut, ya'ni qoraqush demakdir, buni turkmanchada tawşançıl ham deyiladi. Bu qush ko'proq quyon ovlab yegani uchun shunday ataladi”.

⁴ Cod. Or Collective volume with texts in Arabic, Persian, (Kipchak) Turkish and Mongol paper. S. 2v.

“tal” – tol, buni sögüt ham deyiladi, keyingisi turkmancha”.

“özän – o‘zan, irmoq. Buni yirmaq ham deyiladi, bunisi turkmancha”.

Lug‘atda so‘zlar izohlanganda, o‘rni bilan, ularning fonetik shakllari, qanday talaffuz etilishiga ham ayrica urg‘u beriladi. Masalan:

“yağmur” – yomg‘ir; yağmur ham deyiladi; bunisi turkmancha”.

“dağiq” – tovuq; daquq ham deyiladi, bunisi turkmancha”.

Lug‘atda ko‘p ma’noli yoki omonim so‘zlarga alohida e’tibor qaratilgan; muallif bunday so‘zlar anglatgan ma’nolarni to‘liq keltiradi. Masalan:

“kök” – bu osmon, ko‘k rang; jins; asl; tiniq suq demak”.

“yar” – jar yoqasi, jar; so‘lak; bir narsani yorib ajratishni istab buyurganingda ham shunday deyiladi”.

“ot” – o‘t, ko‘kat; olov; dori-darmon; sharm-hayoga ham aytiladi”.

“qoyun” – umuman qo‘y; inson qo‘yni va qo‘ltig‘ini ham ifodalaydi”.

“bor” – may; shaharlarda matolarning ustiga surtiladigan bir turli oq kesak, bo‘r”.

“qaş” – qosh; uzukning ko‘zi; past, uzunasiga cho‘zilgan tog‘ cho‘qqisi”.

Arablar uchun tanish bo‘lmagan tushunchalarga keng izoh beriladi. Masalan:

“çaqir” – bu ham may, mo‘g‘ulcha. Ularda yana boshqa ichimlik borki, u qamishning boshog‘iga o‘xshash o‘simlikni eritilgan asalga qo‘shib achitishdan hosil bo‘ladi. Uning nomi qumlaqdir. Bu ichimlik mast qilishda uzum sharbatiga qaraganda o‘tkirroqdir va shuning uchun uni afzal ko‘radilar. Ularda yana xurmo va boshqa narsalardan tayyorlanadigan, arablarning mizriga o‘xshagan ichimlik ham bor, uni bözä deb ham ataydilar”.

Yodgorlik bitilgan joyda turkiy xalqlarning bir qancha xalqlari masalan, qipchoq, o‘g‘iz, turkmanlar yashaganligi sababli qo‘lyozmada ushbu xalqlarning til xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Muallif qo‘lyozmada ko‘proq qipchoq tiliga e’tibor berganini e’tirof etadi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, obidaning lug‘at qismida yo‘l-yo‘lakay o‘g‘iz va turkman tiliga oid leksik qatlamlar shahrlab ketiladi. Muallif qipchoq, o‘g‘iz, turkman tili va lahjalari o‘rtasidagi fonetik

farqlarni ko'rsatishga harakat qilgan. Fonetik o'zgarishlar ichida singarmonizm qonunining bo'zilishi alohida misollar yordamida ko'rsatib ketadi.

Qo'lyozmaning turkiy qismi arab grammatik an'alariga asoslangan holda tuzilgan bo'lib, avval arabcha so'z va undan so'ng mazkur so'zning turkiycha muqobili beriladi. Ushbu qoida faqatgina qo'lyozmaning birinchi qismi yigirma ikkinchi faslida buzilgan bo'lib, yuqoridagi faslda avval turkiy so'z undan so'ng esa ushbu so'zning arabcha izohi keltirilgan.

Qo'lyozma muallifini turkiy so'zlarning fonetikasi oid qaydlari diqqatimizni tortdi.

Masalan: **adım** (qadam) 22b; – bu so'zdagi arabcha qattiq “د” tovushi “ت” tovushiga o'xshash talaffuz etiladi.

dagi (tag'in, yana) 61a; – bu so'zdagi “د” tovushi “ت” tovushiga o'xshash talaffuz etiladi.

äv (uy, xotira, tushuncha) 22b; – bu so'zdagi “ق” tovushi “ك” tovushiga o'xshash talaffuz etiladi.

sok (so'kmoq, haqorat qilmoq) 42a; bu so'zdagi “ق” tovushi “ك” tovushiga o'xshash talaffuz etiladi.

Ustiga uch nuqta qo'yiladigan “ش” tovushi “ج” tovushiga o'xshash talaffuz etiladi⁵.

Masalan: **çavlı** 18b; **çekmân** 18a; **çıpçuk** 11a; **çıkanak** 21b; **çuz** 20a kabi.

Ustiga uch nuqta qo'yilgan “غ” tovushi “ ” va “ك” tovushi o'rtasidagi “ŋ” sonor tovushi tarzida talaffuz etiladir. Masalan: öŋü - o'zga, boshqa 59b; saŋa – senga 51b; altiŋizda – ostingizda 52a; aŋlik – xotin-qizlar yuziga suradigan qizil bo'yoq, upa-elik 17a. Qo'lyozmada yuqorida aytilgan qoidaga xattotning e'tiborsizligi tufayli rioya qilinmagan holatlarni, ya'ni nuqtalarni tushirib qoldirilganini maŋa – menga 51b; muŋa – bunga 51b; kəŋgl – ko'ngil 20b kabi so'zlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Qo'lyozmada ba'zi so'zlarning fonetik o'zgarishlarga uchragan shakllari muallif tomonidan tuzatilgan shakli berib ketilganligi ko'rishimiz mumkin.

⁵ Жафаров Б. Таржумон туркий ва ажамий ва мўғулий ва форсий қўлёзмаси хусусида // НамДУ ахборотномаси. Наманган 2021. № 11. Б.354.

Masalan: **Bozğuş** to'g'risi **Bozkuš** (atoqli ot) 10b; **Hutluba** to'g'risi **Qutluba** (atoqli ot) 31a; **Mācihān** to'g'risi **Māhcihān** (atoqli ot) 32a; kabi.

Muallif qo'lyozmaning lug'at qismida so'zlarning turli shakllarini qo'llanishi haqida ham ma'lumot berib ketadi. Masalan: **buday**//**boğday** – bug'doy 10a; **bürä**//**bürçä** – burga 12b; **yoğurğan**//**yorğan** – ko'rpa 18a; **oğlan**//**olan** – o'g'il bola 26a; **sıçan**//**sıçқан** – sichqon 12a; **kazğan**//**kazan** – mis qozon 18b; **kısқа**//**kısa** – qisqa 27a; **koçkar**//**koç** – qo'chqor 15b; **kölegä**//**köläk** – ko'langa (soya) 8a; **öpkä**//**öykän** – o'pka 22b; kabi.

Ba'zi o'rinlarda so'zlarning kelib chiqishi, etimologiyasini to'g'risida qaydlarni keltirib o'tadi. Masalan: **tepkiç** – tepki (tepiladigan asbob), oyoq bilan turtish ma'nosidagi so'zdan olingan 14b; **toқurıçı** – to'quvchi, to'qish va taroqning taqillashidan olingan 25b; **çetläyik** – pista va funduq kabi barsa chaqidadigan narsalar, chaqilgan vaqtda chiqadigan tovushga taqlid qilib olingan 8b; **kaşāğū** – qashlag'ich, qashimoq fe'lidan olingan 27a; kabi.

Qo'lyozma muallifi ba'zi so'zlarni tarqalish va ishlatilish manzillarini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Uning ayrim so'zlarni bu yerda hech kim bilmasligini faqatgina shaharlardagina ma'lumdir, deb ta'kidlashi ushbu so'zlarni tarqalish areallaridan yaxshi habardor ekanligini ko'rsatadi. Muallif arab tilidan turkiy tilga yoki aksincha turkiy tildan arab tiliga o'zlashib ketgan so'zlarni izohlab o'tirmay ularni “bu so'z ma'lum” iborasi bilan berib ketganligini “**'attābi**” – material turi 20a; “**kadīş**” – aravaga qo'shiladigan yuk tashuvchi ot 13a; “**sis**” – quyuq tuman rangli ot 5a; “**sac**” – temir tova 18b; “**sulţān**” – sulton 24b; “**sunğur**” – shunqor 10-3; “**çal**” – burul, bo'z (otning rangi) 14a; “**қobuz**” – qo'biz 26a; kabi so'zlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Muallif qo'zyozmada ko'proq og'zaki shaklda avom xalq foydalanadigan va “asl qipchoq tili”ga e'tibor qaratganligini ta'kidlaydi. U qipchoq tiliga boshqa tillardan o'zlashgan bir qancha so'zlarga belgi (pometa)lar keltiradi. Bu kabi pometili so'zlar turkmanchadan o'zlangan so'zlar 98 tani, forschadan o'zlashgan so'zlar 31 tani, turkmancha va forschadan o'zlashgan so'zlar 13 tani, arabchadan

o‘zlashgan so‘zlar 1 tani, rumchadan o‘zlashgan so‘zlar 1 tani, mo‘g‘ulchadan o‘zlashgan so‘zlar 1 tani tashkil etadi.

Turkmancha belgili so‘zlar quyidagilar: **abru** – aqilli 28a, **ay** – o‘roq 25a, **ayva** – behi 8a, **armut** – nok 7-15, **ürgil** – tanlamoq 37b, **yağmur** – yomg‘ir 5b, **yıldırım** – chaqmoq 5b, **üyük** – tepalik 7a, **yırmağ** – ko‘l 7a, **käçüt** – butoq 7b, **sık** – kichik 7b, **yaprağ** – yaproq 8a, **kölegä** – ko‘lanka 8a, **zerdälü** – o‘rik 8a, **nar** – anor 8b, **ğavağ** – terak 8b, **ğavın** – qovun 9a, **keşür** – sabzi 9a, tamu – jahannam 9b, **ğartal** – burgut 10b, **tavşançıl** – yirtqich qush 10b, **yumurda** – tuxum 11a, **yavrı** – jo‘ja 11b, **çekirkä** – chirirtka 11b, **ğurt** – bo‘ri 11b, **tavşan** – quyon 11b, **ilik** – kiyik 11b, **enük** – kuchik 12a, **sıçan** – sichqon 12a, qarınca – chumoli 12a, gulab – gulob (atirgul suvidan olingan shirin ichimlik) 9b, daquq – tovuq 9b, dudaq – lab 19b, it©k – it bolasi (kuchuk) 12b, käch©t – kechik, kequv (daryoning sayoz joyi) 7a kabi.

Turkmancha, forscha belgili so‘zlar quyidagilar: **alu** – olxo‘ri 8a, dānışmānd – donishmand 24a, cūlāh – to‘quvchi 25b, cömerd – saxiy 27a, zardalu – o‘rik 8b, ziyan – ziyon, yutqaziq 29a, kehel – dangasa 28a, kilim – chakmon 18a, qali – gilam 17b, xamri – to‘q qizil 32a, xirman – xirmon 10b, xorus – so‘roz 11b. Bundan tashqari ushbu o‘rinda azbar tut – yodlamoq 36a qo‘shma fe‘li ham turkmancha forschadan olingan deb ko‘rsatilgan⁶.

Forscha belgili so‘zlar qo‘yidagilar: avraz – xalajoy arvaz 6-10, anar – anor 7-20, axur – oxir, molxona 6-7, bağ – bog‘ 8-20, badam – bodom, Gulbahar – ayollarning ismi 30-19, divar – devor 6-3, dastarça – dastro‘mol 6-2, namaz – nomoz, ibodat 41-12, nişan – nishon, belgi 42-8, Payğāambar – payg‘ambar 3-15, saray – saroy 6-2, tazi – arab chopqir oti 12-6, feriştä – farishta 3-15, xurma – xurmo 8-2, shah ballut – kashtan 8-5, şähär – shahar 6-13, shorba – sho‘rva 15-15 v.b.

Qo‘lyozmada ba‘zi so‘zlar ikki xil yozilgan, ya‘ni belgili bo‘lib qolganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Masalan: *dost* – *do‘st* so‘zi qo‘lyozmaning 26 sahifasi

⁶ Жафаров Б. “Таржумон туркий” қўлёзмасининг топилиши ва ўрганилиш тарихи // НамДУ илмий ахборотномаси. – Наманган, 2022 №10. Б. 290.

12 satrida forsha soʻz deb berilgan boʻlsa, 32 sahifaning 10 satrida *dost – doʻst* soʻzi turkmancha boʻlib fors tilidan olingan deb koʻrsatilgan.

Xulosa

Asarda baʼzi soʻzlar oʻzaro qiyoslanib ularning biriga nisbatan bu bir lahjaga oid soʻz deb koʻrsatilganini koʻrishimiz mumkin. Masalan: *yalan – yolgʻon* 27-5, “*er@kka*” nisbatan; *ugʻan – alloh, tangri* 3-14, *təŋriga* nisbatan; *alыр – хачир* 12-11, *qatыrga* nisbatan; *qыraq – achchiq* 27-10 iborasi *achыga* nisbatan; *qur – ziyon, yutqaziq* 28-2, *zayanga* nisbatan; *ogʻas – siyohdon* 23-8, *dəvitga* nisbatan; *tigʻa – togʻa* 31-20, *tayga* nisbatan. Bundan tashqari, muallif *Aybek, Sançar, Aққuş, Balaban, Bekbars, Keykeldi, Aytoғdı, Kündoғdı, Aytemür, Bektemir, Қuştemir, Altunhatun, Kümüştatun, Ayhatun, Künhatun, Қutlu, Tatlu*.kabi atoqli otlarni lahja deb belgilab qoʻrsatadi.

Bir necha oʻrinda masalan, 27 sahifaning 8 satrida arabcha soʻzga turkiy ekvivalent tushirib qoldirilganligini va aksincha 28 sahifaning 6 satrida turkcha soʻzga arabcha izoh berilmaganligini koʻrishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – 4 с.
2. Баскаков Н.А Введение в изучение тюркских языков,. Москва, Высшая школа 1969. – 17 с.
3. Гаркавец А.Н. Китаб-и Маджмуʻ-и Тарджуман-и Турки ва ʻАджами ва Мугали ва Фарси. – Алматы: Баур, 2019.
4. Жафаров Б. “Кодекс куманикус – туркий халқлар ёзма обидаси” Автореф. (PhD). дисс. – Тошкент, 2017.
5. Жафаров Б. “Кодекс куманикус” ва “Таржумон туркий” қўлёзмаларининг қиёсий таҳлили: Филология фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. –Наманган , 2023.
6. Жафаров Б. “Таржумон туркий” қўлёзмасининг топилиши ва ўрганилиш тарихи // НамДУ илмий ахборотномаси. – Наманган, 2022 №10. Б. 290-296.
7. Жафаров Б. Таржумон туркий ва ажамий ва мўғулий ва форсий қўлёзмаси хусусида // НамДУ ахборотномаси. Наманган 2021. № 11. Б.354-358.
8. Содиқов Қ. Тарихий лексикография / - Тошкент. 2011. Б.-26.